
ELEKTRON RAQAMLI IMZONI OLISH TARTIBIDAN XABARDORMISIZ?



Elektron raqamli imzoni olish tartibidan xabardormisiz?

Davlat xizmatini ko'rsatuvchi davlat organi: Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi.

Davlat xizmatidan foydalanish tartibi:

DXMga kelgan holda yoki YalDXP (my.gov.uz (<https://my.gov.uz/oz/service/219>)) orqali so'rovnoma yuboriladi.

Onlayn tarzda murojaat etilganda:

- pasporti yoki ID-kartaning nusxasi va asosiy sahifasi bilan "selfi" usulida olingan fotosurat.

ERIning paroli mobil telefon raqamga "SMS" xabar shaklida yuboriladi.

Yig'im miqdori:

- yuridik shaxslar va tadbirkorlik subektlaridan - BHMning 10 foizi;

- jismoniy shaxslardan - BHMning 7 foizi;

"Ijtimoiy himoya yagona reestri" ATda ro'yxatga olingan va I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga 50 foizi miqdorida chegirma mavjud

Xizmat ko'rsatish muddati - real vaqt rejimida.

ERIning amal qilish muddati - 2 yil.

Ma'lumot uchun: Elektron imzo kalitingiz, login va parollaringizni hech qachon birovga bermang. Sizing nomingizdan boshqalar ish ko'rishlarga yo'l qo'ymang. O'zingiz bilmagan holda noqonuniy harakatlarning ishtirokchisiga aylanmang!

Unutmang!Elektron kalitingiz orqali barcha mol-mulkingiz

o'zlashtirilishi mumkin.

Abdumannon Umriddinov - So'x tumani adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi sho'ba mudiri

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-08-19 16:29:29